Universitet Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi majlisi 9-sonli
bayonnomasiga
7-ILOVA

Mazkur nizomga kiritilgan o‘zgartirishlar:
Universitet Kengashining 2026-yil 11-sentabrdagi 3-sonli bayonnomasining 1-ilovasi

Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o‘qituvchilarining darslarni o‘zaro kuzatishi to‘g‘risidagi NIZOM

Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o‘qituvchilarining darslarni o‘zaro kuzatishi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda − Nizom) O‘zbekiston Respublikasining ta’limga oid qonunchilik hujjatlari va Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta’minlash haqidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan. Nizom Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o‘qituvchilarining darslarni o‘zaro kuzatishiga doir munosabatlarni tartibga soladi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda − Universitet) professor-o‘qituvchilarning darslarni o‘zaro kuzatishiga doir prinsiplar va qoidalarni o‘rnatadi.

2. Universitetda professor-o‘qituvchilarining darslarni o‘zaro kuzatishi o‘qitish sifatini oshirish va professional rivojlanishga qaratilgan hamkorlikka asoslangan jarayondir.

Ushbu jarayon pedagogik tajribalar almashinuvini qo‘llab-quvvatlash, konstruktiv fikr almashishni rag‘batlantirish hamda talabalarning ta’lim olish tajribasini boyitishga xizmat qiladi.

3. Darsni o‘zaro kuzatish natijasida bildirilgan fikr-mulohazalar (feedback), agar professor-o‘qituvchilarning o‘zaro kelishuvida oshkor etish, tarqatish nazarda tutilmagan bo‘lsa maxfiy xarakterga ega bo‘ladi.

Darslarni o‘zaro kuzatish individual samaradorlikni baholash maqsadini ko‘zlamaydi, balki o‘qitish jarayonini uzluksiz takomillashtirish hamda o‘zaro tajriba almashishga yo‘naltiriladi.

Ushbu Nizom professor-o‘qituvchilar darslarining universitet rahbariyati yoki ma’muriyati tomonidan ta’lim sifatini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladigan dars kuzatuvlariga nisbatan tatbiq qilinmaydi.

4. Darsni kuzatish o‘z faoliyatini anglash, hamkasblaridan xolis fikr-mulohazalar olish, o‘zgalar tajribasini o‘rganish va kuzatish, hamkorlikdagi muloqot orqali pedagogik mahoratini oshirish vositasi hisoblanadi.

II bob. Asosiy tushunchalar

Yuqorida qayd etilgan yondashuvdan kelib chiqib mazkur Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Darsni o‘zaro kuzatish – professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘qitish hamda ta’lim olish jarayonini tahlil qilish va o‘zaro tajriba almashish jarayoni.

Kuzatuvchi professor-o‘qituvchi – darsni kuzatuvchi professor-o‘qituvchi.

Kuzatiluvchi professor-o‘qituvchi – darsi kuzatilayotgan professor-o‘qituvchi.

III bob. Darslarni o‘zaro kuzatishga doir prinsiplar

6. Darslarni o‘zaro kuzatish quyidagi prinsiplarga asoslanadi.

Konstruktivlik va qo‘llab-quvvatlash. Darslarni o‘zaro kuzatish jarayoni va uning natijalari kuzatuvchi va kuzatiluvchi professor-o‘qituvchi uchun professional rivojlanishga xizmat qilishi zarur.

Maxfiylik. Darslarni o‘zaro kuzatish yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan muhokamalar va fikr-mulohazalar kuzatuvchi va kuzatiluvchi professor-o‘qituvchilar o‘rtasida sir saqlanadi, dars kuzatiluvi o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi umumiy ma’lumot bundan mustasno.

Inklyuzivlik. Ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan barcha professor-o‘qituvchilar ish staji va tajribasidan qat’i nazar darsni o‘zaro kuzatishda ishtirok etadilar.

Moslashuvchanlik. Fakultet akademik departamentlari ushbu Nizomda belgilangan asosiy prinsiplarga rioya etgan holda, darslarni o‘zaro kuzatishni amalga oshirish usullarini o‘z ehtiyojlari va sharoitlaridan kelib chiqib moslashtirishlari mumkin.

IV bob. Darslarni o‘zaro kuzatish tartibi

7. Sho‘balar har o‘quv yilida professor-o‘qituvchilarning darslarni o‘zaro kuzatish jarayonini tashkil etadilar.

Sho‘balar sentabr oyining oxirgi haftasiga qadar darslarni o‘zaro kuzatuvchi va kuzatiluvchi professor-o‘qituvchilarning ro‘yxati aks etgan jadvalni tasdiqlaydilar.

Kuzatuvchi professor-o‘qituvchi nomzodi kuzatiluvchi bilan kelishilishi lozim. Bunda ayni ikki kishi bir birining darsini o‘zaro kuzatishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sho‘balarning kelishuviga binoan darsni o‘zaro kuzatish har xil sho‘ba professor-o‘qituvchilari o‘rtasida o‘kazilishi mumkin.

Kuzatiluvchi professor-o‘qituvchi kuzatuvchiga darsni kuzatish paytida alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlarni ma’lum qiladi. Bu esa kuzatiluvchi professor-o‘qituvchiga takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni olish hamda ilg‘or amaliyotni mustahkamlash uchun kuchli va zaif tomonlarga e’tibor qaratish imkonini beradi.

8. Darslarni o‘zaro kuzatish ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari yoki boshqa turdagi o‘quv mashg‘uloti bo‘lishi mumkin.

O‘quv mashg‘uloti Toshkent davlat yuridik universitetining o‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasi, ta’limning maqsadlariga muvofiq kelishi hamda o‘qitishning turli metodlari qo‘llanishini rag‘batlantirilishiga asoslanishi kerak.

Kuzatuvchi professor-o‘qituvchi darsni o‘zaro kuzatish natijalari asosida hamda mazkur Nizomning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan yo‘riqnomadan foydalangan holda 1-ilovada ko‘rsatilgan shaklni to‘ldirishi kerak.

Darslarni o‘zaro kuzatish o‘quv yilining istalgan ish kunida o‘tkazilishi mumkin.

Dars kuzatuvining aniq sanasi, mashg‘ulot turi hamda kuzatuvchi va kuzatiluvchi professor-o‘qituvchilar haqidagi ma’lumotlar sho‘ba tomonidan yuritiladigan dars kuzatuvi jadvalida qayd etiladi.

9. Dars mashg‘uloti yakunlangandan so‘ng kuzatuvchi va kuzatilgan professor-o‘qituvchilar o‘rtasida yakka tartibda (yuzma-yuz) konstruktiv muloqot o‘tkaziladi.

Muloqot jarayonida kuchli jihatlar, takomilllashtirilishi lozim bo‘lgan masalalar va innovatsiyalar uchun imkoniyatlar muhokama qilinadi.

10. Kuzatilgan professor-o‘qituvchi kuzatuvning yakunlangani haqida sho‘ba mudiriga xabar beradi.

Sho‘ba mudiri darslarni o‘zaro kuzatish bilan bog‘liq asosiy ma’lumotlarni yuritadi (kuzatuvchi professor-o‘qituvchi, kuzatiluvchi professor-o‘qituvchi, dars kuzatilgan sana va modul).

V bob. Darslarni o‘zaro kuzatish bilan bog‘liq huquq va majburiyatlar

11. Kuzatuvchi professor-o‘qituvchi mashg‘ulot yuzasidan konstruktiv, tatbiq etish mumkin bo‘lgan fikr-mulohazalarni bildirishi va mushohada qilishga undaydigan professional muloqotni olib borishi lozim.

12. Kuzatiluvchi professor-o‘qituvchi kuzatuvchi professor-o‘qituvchi uchun kuzatuv davomida e’tibor berish kerak bo‘lgan asosiy jihatlarni aniqlab beradi.

13. Sho‘ba mudiri professor-o‘qituvchilarning darslarni o‘zaro kuzatish jarayoni ustidan monitoringni amalga oshirish orqali ushbu Nizom talablarining ijro etilishini ta’minlaydi.

Darslarni o‘zaro kuzatishga doir statistik ma’lumotlarni tegishli fakultet dekaniga taqdim etadi.

14. Fakultet dekanlari Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga darslarni o‘zaro kuzatishda professor-o‘qituvchilarning ishtirok darajasi va muhim ahamiyatga ega natija va tavsiyalarini o‘z ichiga olgan yillik axborot taqdim etadi.

15. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi dekanlar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda O‘qitish va ta’lim olish qo‘mitasiga axborot kiritadi.

16. O‘qitish va ta’lim olish qo‘mitasi mazkur Nizomning samaradorligini baholash va doimiy takomillashtirib borishni ta’minlaydi.

VI bob. Yakuniy qoidalar

17. Mazkur Nizom har uch yilda kamida bir marotaba qayta ko‘rib chiqiladi. Zarur hollarda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi.

18. Universitet xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida mavjud amaliyotni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida tegishli mexanizmlarni oliy ta’lim bo‘yicha tashkilotlar, shu jumladan, Buyuk Britaniyaning Oliy ta’limda sifatni ta’minlash agentligi hamda Yevropa oliy ta’lim makonida sifatni ta’minlash bo‘yicha standartlar va yo‘riqnomalari bilan qiyoslab boradi.

Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o‘qituvchilarining darslarni o‘zaro kuzatishi to‘g‘risidagi nizomga
1-ILOVA

PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING DARSLARNI O‘ZARO KUZATISH SHAKLI

Ta’lim dasturi:		**Sana:**
Modul:	**Talabalar soni:**	**Darsda qatnashgan talabalar soni:**
Kuzatuvchi professor-o‘qituvchi FISH:	**Darsi kuzatilgan professor-o‘qituvchi:**	**Kuzatish vaqti:**
Ta’lim darajasi/kurs:		**Dars shakli:**
Mezonlar	**Ijobiy jihatlar**	**Rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlar / takliflar**
1. Darsdan kutilgan natijalarning aniqligi va mosligi.		
2. Darsning tizimli rejalashtirilishi va olib borilishi.		
3. O‘qitish metodlari, xususan, interaktiv ta’lim metodlari, assessment usullaridan foydalanish, metodlarning darsdan kutilayotgan natijalarga bog‘liqligi.		

4. Og‘zaki nutqning ritmi, uning tushunarli ekani, manyera (ko‘z kontakti, o‘rinli yumor).		
5. Talabalar bilan munosabatga kirishish (faol tinglash, etika qoidalariga rioya qilgan holda muloqot qilish, savollariga javob berish, fikrlarni hurmat qilish, talabalarning javoblariga konstruktiv taqriz (feedback) berish.		
6. Muhokama qilinayotgan kontentning amaldagi ahamiyati, to‘g‘riligi, mavzuga taalluqliligi, amaliy misollardan foydalanish, talabalarning ehtiyoji va imkoniyatlariga muvofiqligi.		
7. Talabalarning darsdagi faolligi, ularning tanqidiy mushohada yuritishlarini qo‘llab-quvvatlash.		
8. Auditoriyadagi (virtual makondagi) imkoniyatlardan foydalanish: joylashuvni o‘qitish metodlariga moslashtirish, audio-vizual va IT texnologiyalaridan samarali foydalanish, audio-vizual materiallarning tushunarli bo‘lishi.		
Darsning umumiy sifati: kuchli jihatlar va takomillashtirish kerak bo‘lgan yo‘nalishlar		
Kuchli jihatlar:		
Takomillashtirish kerak bo‘lgan yo‘nalishlar		

to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING DARSLARNI O‘ZARO KUZATISH SHAKLINI TO‘LDIRISH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

Professor-o‘qituvchilarning darslarni o‘zaro kuzatish shakli professional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va o‘qitish amaliyotlarini yaxshilash uchun konstruktiv fikr almashishni ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Kuzatuvchilar jarayonga ijobiy yondashib, kuchli tomonlarga e’tibor qaratishi va rivojlanish uchun amaliy takliflar berishlari kerak.

Iltimos, shaklni to‘ldirishda aniq misollardan foydalaning va umumiy fikrlardan qoching. Bu kuzatilgan professor-o‘qituvchi bilan qayta aloqaning samarali bo‘lishiga imkon beradi.

Shaklda darsni kuzatishga doir mezonlar berib o‘tilgan. Har bir mezon bo‘yicha kuzatiluvchi professor-o‘qituvchining kuchli jihatlari va rivojlantirishi kerak bo‘lgan jihatlarini qayd etib o‘tish zarur.

1. Darsdan kutilgan natijalarning aniqligi va mosligi. Darsni o‘tkazishdan avval uning nihoyasida talabalardan kutilayotgan natija (bilim, ko‘nikma, qadriyat)ning aniqligi, mavzuga taalluqliligi va talabalarga samarali yetkazilishiga baho bering.

Kuchli jihatlar: darsdan kutilgan natijaning xosligi va dars kontentiga muvofiqligini alohida qayd etish mumkin.

Rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlar: darsdan kutilgan natijalarni aniqlashtirish yoki darsdan kutilgan natijalar va o‘qitish metodikasi, talabalar faolligi o‘rtasida bog‘liqlikni ta’minlash zarurati yuzasidan takliflarni berish mumkin.

2. Darsning tizimli rejalashtirilishi va olib borilishi. Darsni rejalashtirish sifatiga baho bering va darsning rejasi taqdim etilganiga e’tibor qarating. Dars kirish, asosiy qism va xulosadan iborat ketma-ketlikdan olib borilganini kuzating.

Kuchli jihatlar: darsning samarali tashkil etilgani va darsning rejasi mantiqiy izchillikda tuzilganini qayd etish mumkin.

Rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlar: darsni yanada yuqori samarali rejalashtirish va bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan qadamlarni tavsiya etish.

3. O‘qitish metodlari, xususan, interaktiv ta’lim metodlari, assessment usullaridan foydalanish, metodlarning darsdan kutilayotgan natijalarga bog‘liqligi. Toshkent davlat yuridik universitetining o‘qitish, ta’lim olish va

assessment strategiyasini hisobga olgan holda o‘qitish metodi, savol-javob texnikasi va kutilgan natijalarga erishishga qaratilgan assessment texnikalaridan foydalanish yuzasidan izoh bering.

Kuchli jihatlar: samarali deb hisoblagan metodlarni va ular qanday darajada talabalarning darsdagi faolligini ta’minlaganini qayd eting.

Rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlar: muqobil metodlarni taklif etish yoki talabalar faolligini ta’minlash va kutilgan natijalarga erishishga qaratilgan assessment texnikalaridan foydalanish yuzasidan takliflar berish mumkin.

4. Og‘zaki nutqning ritmi, uning tushunarli ekani, manyera (ko‘z kontakti, o‘rinli yumor). Darsni olib borishda, instruksiya berish jarayonida professor-o‘qituvchi nutqining tezligi, tempi, ma’lumotlarni tushunarli tarzda yetkazishi va noverbal xatti-harakatlar, masalan, ko‘z kontakti yoki maqsadga muvofiq bo‘lgan yumordan foydalanishiga e’tibor qarating.

Kuchli jihatlar: mavzu doirasida berilgan tushunchalarning aniqligi va talabalar faolligini ta’minlashga qaratilgan samarali usullarning qo‘llanganini hisobga oling.

Rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlar: mavzuni yanada aniq tushuntirish, gapirish tezligi yoki umumiy tushuntirishga qaratilgan uslubni taklif etish.

5. Talabalar bilan munosabatga kirishish (faol tinglash, etika qoidalariga rioya qilgan holda muloqot qilish, savollariga javob berish, fikrlarni hurmat qilish, talabalarning javoblariga konstruktiv taqriz (feedback) berish. Kuzatilayotgan professor-o‘qituvchi talabalar bilan qanday muloqotga kirishayotgani va talabalar o‘rtasida interaktivlikni ta’minlayotganiga e’tibor qarating.

Kuchli jihatlar: ta’lim olish uchun zarur pozitiv muhitni yarata olish uchun asos bo‘lgan muvaffaqiyatli muloqotni ko‘rsatib o‘ting.

Rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlar: munosabat va interaktiv muloqotga kirishish strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha yondashuvlarni taklif eting.

6. Muhokama qilinayotgan kontentning amaldagi ahamiyati, to‘g‘riligi, mavzuga taalluqliligi, amaliy misollardan foydalanish, talabalarning ehtiyoji va imkoniyatlariga muvofiqligi. Dars jarayonida yetkazilayotgan mazmunning dolzarbligi, to‘g‘riligi, mavzuga taalluqliligi va darajasini baholang. Kontentning talabalar qobiliyatiga mosligini tekshiring.

Kuchli jihatlar: yaxshi moslashgan va zamonaviy mazmunni, shuningdek, tegishli adabiyotlar va tadqiqotlarni qayd qiling.

Rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlar: Mazmunni chuqurlashtirish yoki misollarni kengaytirish bo‘yicha takliflar bering.

7. Talabalarning darsdagi faolligi, ularning tanqidiy mushohada yuritishlarini qo‘llab-quvvatlash. Darsda talabalarning faolligini, ularning tanqidiy mushohada yuritishlariga imkon berilgani hamda darsdan kutilgan natijalarga erishish holatlarini qayd eting.

Kuchli jihatlar: talabalarning faolligini ta’minlashga qaratilgan mashg‘ulotlar yoki ularning mavzuni faol o‘rganishlarini ko‘rsatib beruvchi holatlarni e’tirof eting.

Rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlar: talabalarning darsdagi ishtirokini oshirish yoki ularni mavzuni tushunish darajasini baholash metodlarini taklif eting.

8. Auditoriyadagi (virtual makondagi) imkoniyatlardan foydalanish: joylashuvni o‘qitish metodlariga moslashtirish, audio-vizual va IT texnologiyalaridan samarali foydalanish, audio-vizual materiallarning tushunarli bo‘lishi.

Kuchli jihatlar: auditoriyadagi joy va texnologiyadan foydalanish samaradorligi, ularni metodlarga mos holga keltirgan tarzda qo‘llanishiga e’tibor qarating.

Rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlar: muhit yoki texnologiya integratsiyasini yaxshilashga qaratilgan qanday o‘zgartishlar qilish mumkinligini taklif eting.

Darsning umumiy sifati:

Kuchli jihatlar: kuzatilgan darsning asosiy kuchli tomonlarini umumlashtiring.

Rivojlantirish kerak bo‘lgan jihatlar: o‘qitish amaliyotini yaxshilash uchun amaliy va konstruktiv takliflar bering.

Ovoz ohangi va maxfiylik.

Kuzatilgan professor-o‘qituvchiga fikr-mulohazangizni yetkazishda qo‘llab-quvvatlovchi va xolis ohangni saqlang.

Darsni kuzatish jarayonida bildirilgan fikr-mulohazalar, to‘ldirilgan kuzatish varaqasi va o‘tkazilgan muhokama natijalari maxfiy hisoblanadi. Ular faqatgina professor-o‘qituvchining professional rivojlanish maqsadlarida foydalaniladi.

Ushbu yo‘riqnoma kuzatishlarni barqaror, to‘liq bo‘lishi hamda professional rivojlanishga yordam berishini ta’minlaydi.